

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bortkuzatuvchi sifatida vaqtinchalik ishlashga qabul qilishni e'lon qiladi

2023 5 May

“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati yozgi navigatsiya davri uchun yoshlar va talabalar o’rtasida bortkuzatuvchi sifatida vaqtinchalik ishga qabul boshlanganini e’lon qiladi.

Hujjatlarni topshirish va ularni ko’rib chiqish faqat elektron ravishda amalga oshiriladi.

O’qish uchun tanlovda ishtirok etishni xohlagan nomzodlar anketa to’ldirishlari hamda quyida ko’rsatilgan hujjatlarning skanlangan nusxalarini tayyorlashlari va shaxsiy fotosurat bilan birgalikda hammasini ca.school@uzairways.com elektron manziliga yuborishlari zarur.

Nomzodlarning aviakompaniya xodimlari bilan aloqalari ta’minlanmagan. Hujjatlar faqat elektron pochta orqali qabul qilinadi. Taqdim etilgan hujjatlarni ko’rib chiqish ijobjiy natija bergan taqdirda, so’rovnomada ko’rsatilgan elektron pochta manziliga suhbat o’tkazish sanasi va joyi ko’rsatilgan ma’lumotlar yuboriladi.

Hujjatlar ro’yxati (skanlangan nusxalar):

- O’zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti;
- Ish yoki o’qish joyidan ma’lumotnoma;
- Yashash joyidan ma’lumotnoma;
- Foto (4x6);
- Anketa.

Nomzodga qo’yiladigan talablar:

- Nomzod O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lishi va tugallangan oliy yoki o’rta-maxsus ma’lumotga ega bo’lishi kerak;
- Yoshi 18dan 30gacha (30 yoshdan oshganlar qabul qilinmaydi);

- Bo'yi 160 dan 175 santimetrgacha, kiyim o'lchami 36-40 (Yevropa o'lchovida);
- Normal tana massasi indeksi Ketle bo'yicha (18,5-24,9);
- Qaddi-qomati kelishgan va nozik, yurishda nuqsonlar bo'Imasligi kerak;
- Orasta soch turmag'i yoki shakli, erta kallik belgilari, kesilgan joylar bo'Imagan, sochlар tabiiy rangga ega bo'lishi kerak (sochlар uzunligi kiyimning yoqasiga tegmasligi uchun orasta turmakda bo'lishi kerak);
- Ko'rinaridigan nuqsonlar va assimetriyasiz yuz, teri toza bo'lishi kerak, yuz ifodalari hamda mimikalar ijobiy taassurot qoldirishi, muloqot qilish uchun qulay bo'lishi va har bir vaziyatda zarur bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashi kerak (tushunish, do'stona munosabat, g'amxo'rlik, hamdardlik);
- Lablar Fillerlardan holi tabiiy shakl va hajmda bo'lishi darkor;
- Tishlar tekis, toza, old tishlarda oq yoki sariq tish koronkalari bo'Imasligi lozim;
- Qo'llar parvarish qilingan bo'lishi zarur (manikyur bilan). Qo'lning shakli to'g'ri va mutanosib bo'lishi darkor, barmoqlari mavjud bo'Imaganlar (falanjlar) qabul qilinishi mumkin emas;
- Tananing ochiq joylarida chandiqlar, dog'lari va tabiiy belgilari, katta hollar, kuyish izlari va tatuirovkalar, pirsinglar mavjud bo'lsa nomzod qabul qilinmaydi;
- Qaddi-qomati kelishgan bo'lishi lozim.

Har qanday sababga ko'ra o'quv dasturini o'zlashtira olmagan, dars qoldirayotgan, intizomni buzgan, qo'pollik qilgan, tashqi ko'rinishi to'gri kelmaydigan nomzodlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Anketani havola orqali **[yuklab olishingiz mumkin.](#)**

Tanlov kuni nomzodlar uchun dress-kod:

SOCH TURMAG'I

Ixham shaklda chiroyli yig'ilgan uzun sochlар. Kalta sochlarni chiroyli tarzda yig'ish.

YUZ

Kundalik pardoz. Toza manikyur. Lakdan foydalanish mumkin.

KIYIM USLUBI

Yubka / ko'ylak tizzagacha yoki biroz pastroq. Bluzka / ko'ylak. Oq tepa qora pastki

OYOQ KIYIM

O'rta poshnali tuflilar

TATUIROVKA

Ko'rinadigan sohalarda (qo'llar, oyoqlar, yuzlar, bo'yinlar) tatuirovkalar yo'q bo'lishi kerak

Hujjatlar 2023-yil 15-maygacha qabul qilinadi.